

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN KORREKSION ISHDA
O'YINLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Xayitgul Muzaffarova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası p.f.f.d., (PhD)

Aminjonova Gulorom

Maxsus pedagogika: logopediya mutaxassisligi I-bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion ishda o'yinlardan foydalanishning metodologik asoslari, bola hayotini to'g'ri tashkil etishda, ularni har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirishda oyinlardan to'g'ri foydalanish haqida fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'yin, faoliyat, qiziqarli, syujetli, rolli, stol usti, qurilish o'yinlari, harakatli o'yinlar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiyasi maqsad va vazifalarini amalga oshirish ular hayotini tashkil etishning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Yasli bog'chalarda bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondoshish asosida, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriladi.

Hayotning tashkil etish-bu hayot faoliyatning asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi faoliyati va ta'limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo'shib olib borish va navbatlashtirib turish, shuningdek har bir bolani har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

A.S. Makarenko bola hayotini to'g'ri tashkil etishning uning tarbiyasi va rivojlanishidagi rolini ta'kidlab shunday degan edi: «Tarbiyaviy ishning haqiqiy mohiyati umuman, sizning bola bilan ko'rgan suhbatlaringizda, bolaga ko'rsatadigan bevosita ta'sirda emas, balki oilangizning, shaxsiy va ijtimoiy hayotimizning va hamda bola hayotining tashkil etilganligidadir».

Hozirgi paytda bolalar bog'chalarida o'quv tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi.

O'yin bilan kechadigan barcha jarayonlar bola tomonidan oson qabul qilinadi, tez va mustahkam o'zlashtiriladi. O'yin jarayonida bolaga turli bilimlarni o'zlashtirish uchun maksimal imkoniyat beriladi. Ko'plab tadqiqotchilar (L.S.Vigotskiy, V.I.Seliverstov, A.I.Sorokina va boshkalar) maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o'yinlardan foydalanishga katta e'tibor berishadi. Intellektual kamchiliklarga ega bolalarda nutqni rivojlantirishda o'yin alohida ahamiyatga ega deb yozgan

L.S.Vigotskiy .

G.A.Volkova, V.I.Seliverstov, S.N.Shaxovskayalarning tadqiqotlari bolalar bilan korreksion ishda o`yinlardan foydalanish zarurligini isbotlaydi. Maktabgacha ta`lim va tarbiya jarayonida o`yinlardan keng foydalanishga qaramasdan, ularning barcha imkoniyatlari tadqiq qilinmagan va to`laligicha amal qilinmaydi, ayniqsa nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan ishlashda.

O`yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O`yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan uning mazmuni ham o`zgaradi. O`yin ma`lum maqsadga ko`ra yo`naltirilgan ongli faoliyat bo`lib, uning mehnat bilan ko`p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O`yin faoliyati asosida bolada o`quv faoliyati rivojlanadi.

Bola qanchalik yaxshi o`ynasa, u maktabda yaxshi o`qiydi. Shuning uchun bolalarning o`yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Ilk yoshli bolalar o`yin faoliyatining birinchi bosqichida tanishtiruvchi o`yin bo`lib, u narsa-buyum-o`yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo`l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o`yini hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarni ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o`z o`yinlarida qo`llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o`yini mazmun jihatdan predmetli faoliyatini aks ettiradi. Bolalar o`yining yana bir o`ziga xos xususiyati — unda harakat, so`z va obrazlarning o`zaro bog`lanib ketishidir. O`yinda bola o`zi aks ettirayotgan qahramonning his-hayajoni, kechinmalari, harakatlari bilan yashaydi.

Bola hech qachon jim o`ynamaydi, bitta o`zi o`ynasa ham u o`yinchoq bilan gaplashadi, o`zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o`rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o`rniga o`zi gapiradi. So`z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o`yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o`z his-tuyg`u, kechinmalarini o`rtoqlashadi.

So`z bolalar o`rtasida do`stona munosabatlar o`rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayol voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo`lishga yordam beradi.

Bolalarning o`zi yaratgan o`yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o`yinning g`oyasi, mazmuni, o`yin harakatlari, rollar, o`yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O`yinning g`oyasi — bu nima o`ynashni belgilab olish: «do`kon». «shifoxona», «uchuvchilar, «ona-bola» (Oila), «bolalar bog`chasi» shunga o`xshashlar. O`yin mazmuniga, g`oyasiga qarab bolalarning bunday o`yinlarini bir necha o`ziga xos guruhlariga bo`lish mumkin:

a) maishiy turmushni aks ettiruvchi o`yinlar (oila, bolalar bog`chasi, shifoxona va boshqalar);

b) kishilarning yaratuvchilik mehnatini aks ettiruvchi o`yinlar (metro qurilishi, dehqonlar mehnati, uy, fabrikalarning qurilishi va h.k.).

d) ijtimoiy voqealarni, an`analarni aks ettiruvchi o`yinlar (bayramlar, namoyishlar, sayohat, mehmonlarni kutish va h.k.)

O`yinlarning bunday bo`lishi albatta shartli bo`lib, bir o`yinda har xil hayotiy voqealar ham aks etishi mumkin. G`oya o`yinning mazmuni, jonli to`qimasi bo`lib, uning rivojlanishini, o`yin harakatlarini, bolalar numosabatlarining har xilligi va o`zaro bog`lanishini belgilab beradi. O`yinning qiziqarli bo`lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o`yin mazmuniga bog`liq. O`yinda bola ijro etadigan roli o`yinning asosiy o`zagi va tarkibiy xususiyatidir. SHuning uchun ham bu o`yinlar rolli va syujetli rolli o`yinlar nomini olgan. Bola olgan rolga qarab, o`sha obrazga kirib ketadi va uning rostligiga ishonadi.

Demak, barcha turdagi o`yinlar bolalarning kattalar faoliyatiga qiziqishlariga, ularga taqlid qilishga intilishlariga asoslanadi. Chunki bu o`yinlar kishilarning mehnati va oilaviy hayotini; uchuvchilar, kosmonavtlar, dengizchilar hamda boshqalarning qahramonliklarini o`zida aks ettiradi.

Bolalar o`yini o`zining mazmuni, xususiyati, tashkil qilishiga ko`ra psixolog olimlar ularni quyidagi turkumlarga ajratadilar:

1. Ijodiy o`yinlar.
2. Qoidali o`yinlar.

Ijodiy o`yinlarni bolalar o`zlari o`ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo`lmaydi. O`yin qoidasini bolalar o`zlari o`yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o`yinlarga drammalashgan o`yinlar, qurilish o`yinlari, tabiiy materiallar bilan o`ynaladigan o`yinlar kiradi.

Harakatli o`yinlar o`z mohiyati bilan boshqa o`yinlardan ajralib turadi. Bolalar turli harakatli o`yin mashqlarini (sakrash, chopish, otish, uzatish irg`itish) bajarar ekanlar, ularning kelajakda sog`lom va baquvvat bo`lib etilishlariga mustahkam zamin hozirlanadi. Bunda asosan tez harakat qilish, topqirlik holatlari va harakatlari amalga oshiriladi.

Bu o`yinlar sezish, ko`rish, nafas olish organlari, qo`l-oyoq muskullarining yaxshi harakat qilishi va mee`yorda rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlarda pedagoglar tomonidan quyidagi o`yin turlaridan keng qo`llanib kelayotganligini aniqladik.

1. Ijodiy o`yinlar.
 - A) syujetli-rolli o`yinlar;
 - B) qurilish o`yinlari;
 - d) sahnalashtirilgan o`yinlar;
2. Qoidali-harakatli o`yinlar.
3. Didaktik o`yinlar.

- A) o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan o`yinlar;
- B) stol ustida o`ynaladigan o`yinlar;
- d) og`zaki o`yinlar.

Ijodiy o`yinlarning mazmunini bolalarning o`zlari o`ylab topadigan va ularda taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarni hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali o`yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiradi. Mazmuni, qoidalarni murakkablanishiga qarab, u turli yoshdagi bolalarga mo`ljallangan bo`ladi. Tayyor qoidali o`yinlarning katta guruhini xalq o`yinlari tashkil etadi, ularning ko`plari avloddan avlodga o`tib, bizga etib kelgan. Didaktik o`yinlar bolalar bog`chasida ta`lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo`llaniladi. Didaktik o`yin ta`lim bilan bevosita bog`liq bo`lib, unga yordam beradi. Didaktik o`yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta`lim berish metodidir.

O`z navbatida didaktik o`yinlar o`zining xilma-xil ko`rinishlariga ega. Syujetli-rolli o`yinlari, bu o`yinda bolalar o`zlarini ma`lum bir qandaydir kasb egasi (shifokor, o`qituvchi, quruvchi) vazifasini bajarayotgandek his qiladi.

O`yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o`yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to`g`ri tashkil etish - ularni to`g`ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o`yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o`yinda bola yashashni o`rganmaydi, balki o`z hayoti bilan yashaydi».

O`yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O`yin bilan ta`lim o`rtasidagi bog`liqlik bola ulg`aygan sari o`zgarib boradi. Kichik guruhda o`yin ta`lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg`ulotlarda ta`limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o`zlarida maktabdagi o`qishga ishtiyoq uyg`onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o`yinning qadri yo`qolmaydi, balki mazmuni o`zgaradi. Endi bolalarni ko`proq fikriy faollikni talab etuvchi o`yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o`yinlar qiziqтира boshlaydi.

O`yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O`yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko`nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar.

O`yinda bolaning o`z tengdoshlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. Bolalarning o`yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo`linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o`yining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir.

Bunday o`yinda bolalar o`rtog`ining o`yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga

o`ynab, «yonma- yon» o`tirganlaridan xursand bo`ladilar.

Bu yoshdagi bolalarning o`yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta`sir etish orqali tashkil etiladi.

Bu davrga kelib bir - baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o`yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o`zaro yordam, o`rtoqlik, do`stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog`chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta`minlash uchun yosh guruhlarida rang-barang o`yinlardan foydalanish zarur.

Ijodiy o`yinlar qoidalarining ichki, yashirin tabiati bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o`ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidali o`yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo`ladi. Bu o`ynovchiga syujetni osonlik bilan o`zgartirish, qo`shimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o`yinlar bolalarda katta qiziqish uyg`otadi va ularga ulkan ta`sir ko`rsatadi. biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o`yinlardan foydalanish xato bo`lur edi. Bolalarning qoidali o`yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalar harakatlarning muayyan normalarini so`ng esa bolalarning bir-biriga bo`lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o`zini va o`zi bilan birga o`ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalarni bajarishdagi mustaqillik o`yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o`ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo`ladi. O`yinning ijtimoiy ta`siri, u uyg`otadigan hislar unda tarkib topadigan munosabatlarda mujassamlashgan bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov R. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning harakatli o`yinlari.T” O`qituvchi ”1969-yil .
2. Solixova R.Bolalar bog`chasida o`tkaziladigan harakatli o`yinlar. T” O`qituvchi”
3. Usova A.p.Rol igru v vospitaniye detey. M.P. Prosvexenie.
4. Ten.X.P. Bolalar o`yinlari . T ”O`qituvchi”
5. Usmonxo`jayev T.S Xo`jayev F.Harakatli O`yinlar.Toshkent, 1992.
6. Xo`jayev F. va boshqalar. Xalq milliy o`yinlari 1.qism.Toshkent , 2001.
7. Normurodov A.N O`zbek milliy o`yinlari Toshkent 1999.